



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziyo ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81

2022 - yil «31» - dekabr

VI-65-303-8-0-K/22

Surxondaryo viloyati hokimligi

Surxondaryo viloyatining 2023-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalari, Budget kodeksining 99-moddasi, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrdagi 01/20-32/1026-son xatini inobatga olib, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida” Qonuniga muvofiq, Surxondaryo viloyati mahalliy budgetining 2023-yil uchun daromadlari **3 042,3 mlrd. so‘m**, xarajatlari **6 291,1 mlrd. so‘m** proqnoz qilinganligi hamda respublika budgetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar **3 248,9 mlrd. so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun Surxondaryo viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari proqnozi hamda 2024-2025-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2023-yil uchun viloyat mahalliy budgeti daromadlari proqnozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun viloyatning viloyat budgetidan hududiy budget mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun tumanlar va shaharlar budgetlariga umum davlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo'yicha viloyat mahalliy budgeti bilan tumanlar va shaharlar mahalliy budgetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda Surxondaryo viloyati bo'yicha g'aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

6. 2023-yil uchun tumanlar va shaharlar mahalliy budgetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qilinsin.

7. 2023-yil uchun viloyat budgetidan tumanlar va shaharlar mahalliy budgetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budgetlararo transferlar miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budgetlararo transferlar miqdorini tumanlar va shaharlar mahalliy budgetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023-yil uchun viloyat mahalliy budgetining viloyat budgeti zaxira jamg'armasi hajmlari **25,1 mlrd. so'm** miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar budgetlarining 2023-yil uchun zaxira jamg'armalari tegishli budgetlar tasdiqlangan umumiylar xarajatlarining kamida **1,0 foizi** miqdorida shakllantirilsin.

Surxondaryo viloyati viloyat budgetining, tumanlar va shaharlar budgetlarini ijro etishda yuqori turuvchi budgetdan ularga ajratiladigan budgetlararo transferlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budgetlarining zaxira jamg'armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

9. 2023-yil uchun viloyatning viloyat, shahar va tumanlar budgetlari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budget mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Qonunga asosan 2023-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar viloyat budgeti hamda shahar va tumanlar budgetlari o'rtasida taqsimlanadi:

- qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

- juridik shaxslardan olingadigan yer solig‘i;
- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda tegishli mol-mulkni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- benzin, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalaridan tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;
- ayrim turdag'i tovarlarning chakana savdosiga huquq uchun yig‘imlar;
- yig‘imlar hamda qounuchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘zi yurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undirladigan utilizatsiya yig‘imidani, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnomasi berish uchun to‘lovdan tashqari);
- davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

b) Viloyatning viloyat budgetiga quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlari to‘lig‘icha o‘tkaziladi:

- foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yhatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidenlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari);
- elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va litsenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);
- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga undiriladigan jarimalar;
- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (dromadlar) va ajratmalar;
- boshqa tushumlar.

v) Quyidagi soliq turlari shahar va tumanlar budgetiga to‘liqligicha o‘tkazib

beriladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;
- yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan solig‘i;
- aylanmadan olinadigan soliq;
- davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushadigan tushumlar;
- mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkagol mahsulotlari, tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022 yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq to‘liq hajmda taqsimlansin.

d) Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar va soliqsiz tushumlari hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budgetiga yo‘naltiriladi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lамини kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budget” axborot portalni orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budgeti, viloyatlarning viloyat budgetlari va Toshkent shahrining shahar budgetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

d) tashabbusli budgetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budgetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

e) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budgetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi

ishlab chiqilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

12. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rnbosari, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, viloyat hokimligi Moliya bosh boshqarmasi (J.Normo‘minov), Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) tumanlar va shaharlar hokimliklari va mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budgetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalahtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budget prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budget mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budget intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budgetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minalash;

budget daromadlar bazasini oshirish va qo‘srimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) tumanlar va shaharlar Davlat soliq inspeksiyalari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budgetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minalash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbiralarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida

fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (M.Abdiraxmanov) bilan birgalikda viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish mintaqaviy inspeksiyasi hamda tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan kar’erlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o’tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan kar’erlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan kar’erlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan kar’erlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budgetning qo‘sishimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (A.Xudoyorov) viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budgetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (S.Xoliqu) Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiyashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “e-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

17. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (S.Xoliqov), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov), viloyat Moliya bosh boshqarmasi (J.Normo‘minov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2023-yilning 1-iyuliga qadar 2022-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lмаган miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2023-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budgetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

18. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (E.Eshkeldiyev) tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budgetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

19. Viloyat “Amu-surxon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (T.Alimov) va viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budgetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari

bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

20. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov), Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (A.Xudoyorov), viloyat Adliya boshqarmasi (S.Abdurasulov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budgetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

21. Davlat moliyaviy nazorati viloyat boshqarmasi Xalq ta’limi, Maktabgacha ta’lim va Sog‘liqni saqlash boshqarmalarining ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

budget intizomiga qat’iy rioxat etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirishni;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisobotini har chorakda eshitib borishni ta’minlasin.

22. Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budgetning qo‘srimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish va budget qonunchiligidagi to‘liq rioxat etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budgetning qo‘srimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanish ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

Mahalliy budget xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

23. Viloyat, tumanlar va shaharlar hokimliklariga:

tumanlar va shaharlar budgetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘srimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

bunda, xalq deputatlari viloyat, tumanlar va shaharlar Kengashlari, Yoshlar ishlari agentligi, tumanlar va shaharlar hokimliklari huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda yangi joriy etiladigan hokim yordamchilari budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida aholiga keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

mahalliy budgetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro'yxati, shuningdek, qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

24. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rnbosari, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi tumanlar va shaharlar hokimliklari va tegishli boshqarmalar bilan birgalikda:

mahalliy budget daromad va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo'yicha xalq deputatlari viloyat Kengashiga chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

25. Mazkur qaror "Surxon tongi" va "Zarya Surxana" gazetalarida rasmiy e'lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

26. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

27. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi



A.R.Choriyev

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining
 2022 yil 31 dekabrdagi
 VI-65-303-8-0-K/22-son qaroriga
 1-ilova

**Surxondaryo viloyatining 2023-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari proqnoz ko‘rsatkichlari hamda
 2024-2025-yilga mo‘ljallari**

№	Ko‘rsatkichlar	2023-yil uchun proqnoz	2024-yil uchun mo‘ljal	2025-yil uchun mo‘ljal
1.	Yalpi hududiy mahsulot, trln.so‘m	37,3	42,6	48,7
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	107,5	107,4	107,7
3.	Istyemol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	102,4	102,1	101,1
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	109,0	108,0	110,0
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103,7	103,9	104,2

6.	Chakana tovar aylanmasining o'sish sur'ati, foizda	114,0	115,0	117,0
----	--	-------	-------	-------

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-65-303-8-0-K/22-son qaroriga
2-ilova

**Surxondaryo viloyati mahalliy budjeti daromadlarining
2022-yilgi asosiy prognoz ko'rsatkichlari**

(ming so'mda)

T/R	Daromad turlari	Jami	I. Mahalliy soliq va tushumlar	1 518 236 000,0
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'i	169 356 000,0		
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	758 337 500,0		
3	Aksiz solig'i shu jumladan: Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	96 903 500,0 96 903 500,0		
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	49 016 000,0		
5	Yuridik shaxslar yer solig'i	86 130 000,0		
6	Davlat boji	145 640 000,0		
7	Jarimalar	102 597 000,0		
8	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	338 000,0		
9	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	51 280 000,0		
10	Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan tushum	20 000 000,0		
11	Cuv resurslaridan foydalilaniganlik uchun soliq	14 180 000,0		
12	Boshqa tushumlar	24 458 000,0		
II.	Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transferlar	3 248 863 894,0		
	Daromadlar hammasi	4 767 099 894,0		

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-65-303-8-0-K/22-son qaroriga
3-ilova

**Surxondaryo viloyati budgetidan birinchi darajali budget mablag‘larini taqsimlovchilarga
ajratiladigan 2023-yil uchun cheklangan miqdorlari**

(ming so‘mda)

Xarajatlar miqdori, Jami	4 767 099 894
<i>shu jumladan:</i>	
joriy xarajatlar	2 439 318 567
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	364 575 016
melioratsiya obyektlarini ta’mirlash va tiklash ishlarini amalga oshirish uchun xarajatlar	42 016 197
Tuman va shaxar mahalliy budgetlariga transferlar	1 921 190 114
shundan	
xalq ta’limi muassasalarini keng polosali Internet tarmog‘iga ulanishini ta’minlash xarajatlar	3 466 172
davlat tibbiyot tashkilotlari hamda viloyat aholisini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlash uchun xarajatlar	31 941 298
suv nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste’moli uchun xarajatlar	732 000 000
Olis hududda ishlovchi budget tashkiloti hodimlarining bir martalik moddiy yordam va oylik uy-joy ijara to‘lovlari uchun	6 993 630
1. Xalq ta’limi boshqarmasi	274 232 028
<i>shu jumladan:</i>	
joriy xarajatlar	155 412 674
shundan	0
xalq ta’limi muassasalarini keng polosali Internet tarmog‘iga ulanishini ta’minlash xarajatlari	3 466 172
Olis hududda ishlovchi budget tashkiloti hodimlarining bir martalik moddiy yordam va oylik uy-joy ijara to‘lovlari uchun	6 993 630
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	118 819 354
1. Prezident ta’lim muassasalari agentligi viloyat bo‘limi	106 973 305
<i>shu jumladan:</i>	
joriy xarajatlar	106 973 305
shundan	0
xalq ta’limi muassasalarini keng polosali Internet tarmog‘iga ulanishini ta’minlash xarajatlari	0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
2. Maktabgacha ta’lim boshqarmasi	109 535 740
<i>shu jumladan:</i>	
joriy xarajatlar	4 268 078

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	105 267 662
3.	O‘rta maxsus kasb hunar ta’lim boshqarmasi	17 211 792
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	17 211 792
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
4.	Sog‘liqni saqlash boshqarmasi	625 098 714
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	559 230 414
	shundan	0
	davlat tibbiyot tashkilotlari hamda viloyat aholisini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minalash uchun xarajatlar	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	65 868 300
5.	Madaniyat boshqarmasi	41 997 245
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	41 997 245
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
6.	Viloyat Turizm va madaniy meros boshqarmasi	8 143 433
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	8 143 433
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
6.	Viloyat Sportni rivojlantirish bosh boshqarmasi	40 323 521
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	40 323 521
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
7.	Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi	3 528 481
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 528 481
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
8.	Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi (Ko‘p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish xarajatlari)	7 449 618
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7 449 618
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
9.	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi	2 681 707
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 681 707
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0

10. Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	900 601 865
shu jumladan:	
joriy xarajatlar	858 585 668
suv nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'moli uchun xarajatlar	0
melioratsiya obyektlarini ta'mirlash va tiklash ishlarini amalga oshirish uchun xarajatlar	42 016 197
	0
	0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0
11. O'rmon xo'jalik boshqarmasi	14 321 541
shu jumladan:	
joriy xarajatlar	14 321 541
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0
12. Viloyat Transport boshqarmasi	2 397 435
shu jumladan:	
joriy xarajatlar	2 397 435
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0
13. Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish boshqarmasi	9 299 956
shu jumladan:	
joriy xarajatlar	9 299 956
shundan	
Maxsus texnikalar xarid qilish uchun	0
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0
14. Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi	9 386 224
shu jumladan:	
joriy xarajatlar	9 386 224
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0
15. Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish hududiy boshqarmasi	168 757
shu jumladan:	
joriy xarajatlar	168 757
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0
16. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi	7 190 808
shu jumladan:	
joriy xarajatlar	7 190 808
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0
17. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi	1 810 710
shu jumladan:	
joriy xarajatlar	1 810 710
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0
18. Tibbiy ijtimoiy xizmatlar	63 611 273

	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	63 611 273
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
19.	Bandlik bosh boshqarmasi	1 882 187
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 882 187
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
20.	Qurilish bosh boshqarmasi	2 585 232
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 585 232
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
21.	Adliya bosh boshqarmasi	7 195 427
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7 195 427
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
22.	Iqtisodi taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi	13 083 648
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	13 083 648
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
23.	Moliya bosh boshqarmasi	1 935 361 550
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	14 171 436
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
	Tuman va shaxar mahalliy budgetlariga transfertlar	1 921 190 114
24.	G‘aznachilik boshqarmasi	11 928 828
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	11 928 828
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
25.	Pensiya boshqarmasi	22 902 261
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	22 902 261
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
26.	Suv yo‘llari texnik uchastkasi	17 504 752
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	17 504 752
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
27.	Issiqlik ta’minoti	0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
28.	Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi (Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari)	1 321 000
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlар	1 321 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
29.	Davlat hokimiyat organlari	374 849 432
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlар	350 229 732
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	24 619 700
30.	Ijtimoiy moslashuv markazlari	987 348
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlар	987 348
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
31.	Axborot va ommaviy komunikatsiyalar boshqarmasi	822 617
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlар	822 617
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
32.	Xalq qabulxonasi	8 733 792
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlар	8 733 792
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
33.	Viloyat hokimligi rasmiy mehmonlar qabullar uyi	4 136 233
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlар	4 136 233
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
34.	Ma’naviyat va ma’rifat markazi	3 023 878
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlар	3 023 878
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
35.	Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi	3 880 111
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlар	3 880 111
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
36.	Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi	0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlар	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0

37. Monoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi viloyat boshqarmasi	1 727 789
<i>shu jumladan:</i>	
joriy xarajatlar	1 727 789
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
38. Surxondaryo viloyati saylov komissiyasi kotibi	72 791
<i>shu jumladan:</i>	
joriy xarajatlar	72 791
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
39. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi kotibiyati	574 029
<i>shu jumladan:</i>	
joriy xarajatlar	574 029
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
40. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi	3 738 568
<i>shu jumladan:</i>	
joriy xarajatlar	3 738 568
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
41. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi	7 112 548
<i>shu jumladan:</i>	
joriy xarajatlar	7 112 548
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
42. Davlat arxivi boshqarmasi	4 973 959
<i>shu jumladan:</i>	
joriy xarajatlar	4 973 959
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
43. O‘simliklar himoyasi va karantini boshqarmasi	19 145 579
<i>shu jumladan:</i>	
joriy xarajatlar	19 145 579
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
44. Davlat xizmatlari agentligi viloyat boshqarmasi (FHDYO bo‘limlari)	2 411 450
<i>shu jumladan:</i>	
joriy xarajatlar	2 411 450
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
45. Viloyat Mahalla va nuroniyarlari qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi	1 891 622
<i>shu jumladan:</i>	
joriy xarajatlar	1 891 622

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
46.	Viloyat Oila va xotin-qizlar boshqarmasi	1 578 433
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 578 433
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
47.	Boshqa tashkilotlar	67 710 677
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	17 710 677
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	50 000 000

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-65-303-8-0-K/22-son qaroriga
4-ilova

Soliqlar va yig‘imlardan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga 2023-yil uchun ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Aylanmadan soliq	Yakka tartibdagi tadbirdorlardan olinadigan qat’iy belgilangan soliq (faqat 3 111 401 daromad kodи)	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga solishdan aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq *	Yuridik shaxslar yer solig‘i **	Yig‘imlar	Davlat mulkini xususiylash-tirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar	Ijara to’lovlar
1	Termiz shahri	100	100	100	100	15	50	40	100	100	50		20	100
2	Oltinsoy tumani	100	100	100	100	80	50	80	100	100	50	100	20	100
3	Boysun tumani	100	100	100	100	50	50	40	100	100	50	100	20	100
4	Bandixon tumani	100	100	100	100	80	50	80	100	100	50	100	20	100
5	Muzrabot tumani	100	100	100	100	50	50	80	100	100	50	100	20	100
6	Denov tumani	100	100	100	100	30	50	80	100	100	50		20	100
7	Jarqo‘rg‘on tumani	100	100	100	100	40	50	50	50	100	50	100	20	100
8	Qumqo‘rg‘on tumani	100	100	100	100	40	50	80	100	100	50	100	20	100
9	Qiziriq tumani	100	100	100	100	40	50	80	100	100	50	100	20	100
10	Sariosiyo tumani	100	100	100	100	50	50	40	50	100	50	100	20	100
11	Termiz tumani	100	100	100	100	40	50	50	100	100	50	100	20	100

12	Uzun tumani	100	100	100	100	75	50	80	100	100	50	100	20	100
13	Sho‘rchi tumani	100	100	100	100	45	50	50	100	100	50	100	20	100
14	Sherobod tumani	100	100	100	100	40	50	20	100	100	50	100	20	100
15	Angor tumani	100	100	100	100	50	50	80	100	100	50	100	20	100

Izoh:

* Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budgetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-65-303-8-0-K/22-son qaroriga
5-ilova

**2023-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlari daromadlar va
xarajatlar prognoz ko‘rsatkichlari**

(ming so‘mda)

T/R	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
	JAMI	1 524 035 712	3 445 225 826
1	Termiz shahri	170 883 721	214 425 498
2	Oltinsoy tumani	97 650 803	248 956 814
3	Boysun tumani	72 942 522	183 334 922
4	Muzrabot tumani	80 249 039	190 274 588
5	Denov tumani	185 984 683	440 684 447
6	Jarqo‘rg‘on tumani	111 500 231	262 193 783
7	Qumqo‘rg‘on tumani	109 103 962	269 441 330
8	Qiziriq tumani	71 478 711	163 240 221
9	Sariosiyo tumani	98 158 775	285 817 419
10	Termiz tumani	66 182 321	135 827 492
11	Uzun tumani	100 377 816	237 816 991
12	Sho‘rchi tumani	104 934 391	270 751 553
13	Sherobod tumani	123 866 033	240 457 480
14	Angor tumani	79 411 305	173 291 573
15	Bandixon tumani	51 311 399	128 711 715

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-65-303-8-0-K/22-son qaroriga
6-ilova

**Shahar va tumanlar budgetlariga 2023-yilda ajratiladigan tartibga soluvchi
budgetlararo transfertlar miqdorlari**

(ming so‘mda)

T/R	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori
	JAMI	1 921 190 114
	<i>shundan</i>	
1	Termiz shahri	43 541 777
2	Oltinsoy tumani	151 306 011
3	Boysun tumani	110 392 400
4	Muzrabot tumani	110 025 549
5	Denov tumani	254 699 764
6	Jarqo‘rg‘on tumani	150 693 552
7	Qumqo‘rg‘on tumani	160 337 368
8	Qiziriq tumani	91 761 510
9	Sariosiyo tumani	187 658 644
10	Termiz tumani	69 645 171
11	Uzun tumani	137 439 175
12	Sho‘rchi tumani	165 817 162
13	Sherobod tumani	116 591 447
14	Angor tumani	93 880 268
15	Bandixon tumani	77 400 316

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-65-303-8-0-K/22-son qaroriga
7-ilova

2023-yilda viloyat, shahar va tumanlar mahalliy budjetlarida yo'l qo'yiladigan eng kam mablag'lar miqdori

(ming so'mda)

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	17 260 510
	<i>shundan</i>	
1	Viloyat budjeti	5 264 740
2	Termiz shahri	993 960
3	Oltinsoy tumani	743 330
4	Boysun tumani	698 450
5	Muzrabot tumani	697 510
6	Denov tumani	1 420 730
7	Jarqo'rg'on tumani	911 230
8	Qumqo'rg'on tumani	800 940
9	Qiziriq tumani	515 650
10	Sariosiyo tumani	1 001 710
11	Termiz tumani	697 670
12	Uzun tumani	810 870
13	Sho'rchi tumani	790 460
14	Sherobod tumani	836 180
15	Angor tumani	721 200

16	Bandixon tumani	355 880
----	-----------------	---------